



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asaxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeovich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarining texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA BARMOQLAR HARAKATI MASHQLARI ASOSIDA KICHIK MOTORIKA VA HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH



Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich
Turon universiteti Andijon filiali dotsenti

<https://orcid.org/0009-0009-5680-4642>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari orqali kichik motorika hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Hozirgi ta'lim amaliyotida bolalarning umumiy jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, qo'l panjasi, barmoqlar, bilak va kaft harakatlarini maqsadli rivojlantirish ayrim hollarda yetarli darajada tizimli tashkil etilmayapti. Holbuki, kichik motorika bolaning yozuvga tayyorgarligi, harakat aniqligi, diqqat, nutq rivoji, sezgi-harakat muvofiqligi hamda umumiy psixomotor rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Maqolada barmoqlar harakati mashqlarining pedagogik imkoniyatlari, ularni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga integratsiya qilish usullari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, kichik motorika, barmoqlar harakati, harakat koordinatsiyasi, jismoniy tarbiya, psixomotor rivojlanish, pedagogik metodika.

Abstract: This article scientifically and pedagogically analyzes the development of fine motor skills and movement coordination in preschool and primary school children through finger movement exercises. Although considerable attention is paid to children's general physical development in modern educational practice, the purposeful development of hand, finger, wrist, and palm movements is not always systematically organized. However, fine motor skills are directly related to writing readiness, movement accuracy, attention, speech development, sensorimotor coordination, and overall psychomotor development. The article discusses the pedagogical potential of finger exercises, methods of integrating them into physical education activities, and methodological recommendations for their application based on children's age characteristics.

Key words: preschool age, primary school age, fine motor skills, finger movements, movement coordination, physical education, psychomotor development, pedagogical methodology.

Аннотация: В статье научно-педагогически анализируются вопросы развития мелкой моторики и координации движений у детей дошкольного и младшего школьного возраста посредством упражнений для пальцев рук. Несмотря на то, что в современной образовательной практике большое внимание уделяется общему физическому развитию детей, целенаправленное развитие движений кисти, пальцев, запястья и ладони не всегда организуется системно. Между тем мелкая моторика тесно связана с подготовкой ребёнка к письму, точностью движений, вниманием, развитием речи, сенсомоторной координацией и общим психомоторным развитием. В статье раскрываются педагогические возможности пальчиковых упражнений, способы их интеграции в занятия физического воспитания, а также разработаны методические рекомендации по их применению с учётом возрастных особенностей детей.

Ключевые слова: дошкольный возраст, младший школьный возраст, мелкая моторика, движения пальцев, координация движений, физическое воспитание, психомоторное развитие, педагогическая методика.

KIRISH

Maktabgacha va kichik maktab yoshi bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy hamda psixomotor rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni harakat, sezgi, o'yin va taqlid orqali o'zlashtiradi. Shu sababli jismoniy tarbiya jarayonida faqat yirik mushak guruhlari rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, qo'l panjasi, barmoqlar va bilak harakatlarini ham maqsadli ravishda shakllantirish zarur.

Amaliyotda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ko'pincha yugurish, sakrash, uloqtirish, muvozanat saqlash hamda harakatli o'yinlar bilan bog'lanadi. Bu, albatta, bolaning katta motorikasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq kichik motorika - ya'ni barmoqlar, kaft, bilak va qo'l panjasining aniq hamda muvofiqlashtirilgan harakatlari - bolalarning yozuvga tayyorgarligi, nutqiy faolligi, diqqatni jamlashi, ko'z-qo'l koordinatsiyasi va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich sinflarda barmoq mashqlari ko'pincha qo'shimcha, ikkinchi darajali yoki faqat dam oldiruvchi mashq sifatida baholanadi. Aslida esa barmoqlar harakati bolaning markaziy asab tizimi, mushak-sezgi boshqaruvi hamda koordinatsion qobiliyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab rivojlantiruvchi faoliyat hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda kichik motorika hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirishda barmoqlar harakati mashqlari muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida bolalarni har tomonlama jismoniy va intellektual rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan^[1].

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga oid Prezident qarorlarida bolalarning psixomotor rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ta'kidlangan^[2].

K.M. Maxkamjonov va X.B. Tulenovalar tadqiqotlarida jismoniy mashqlar, ayniqsa qo'l va barmoq harakatlari bolaning sezgi organlari, tafakkuri hamda nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan^[3].

T.S. Usmonxo'jayev va F. Xo'jayev esa harakatli o'yinlar orqali bolalarda koordinatsiya, tezkorlik va mayda muskullar faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslab berganlar^[4].

Gallahue, Ozmun va Goodwaylarning ilmiy qarashlariga ko'ra, kichik motorikaning rivojlanishi bolaning yozuv malakasi hamda kundalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish hamda amaliy tajribalarni tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor bolalarning yosh xususiyatlari, harakat faoliyati, kichik motorika va koordinatsion qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik motorika va harakat koordinatsiyasining mazmuni

Kichik motorika - bu barmoqlar, kaft, bilak va qo'l panjasi mushaklarining aniq, maqsadli hamda muvofiqlashtirilgan harakatlarini bajarish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat bolaning kundalik faoliyati, o'yin jarayoni, o'quv harakatlari, rasm chizish, qalam ushlab, yozuvga tayyorgarlik va predmetlar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Kichik motorika katta motorikadan ajralgan holda rivojlanmaydi. Aksincha, ular o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Masalan, bola to'pni ushlaganda yoki uloqtirganda faqat yelka va qo'l mushaklari emas, balki barmoqlar, kaft va bilak ham faol ishtirok etadi. Shu sababli jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida katta va kichik motorikani uyg'un rivojlantirish zarur.

Harakat koordinatsiyasi esa bolaning bir nechta harakatni moslashtirib, aniq va maqsadli bajarish qobiliyatidir. Barmoqlar harakati mashqlari ko'z-qo'l muvofiqligi, ritm sezgisi, taktil sezgirlik, harakat aniqligi hamda tezkor javob qaytarish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Barmoqlar harakati mashqlarining pedagogik ahamiyati

Barmoqlar harakati mashqlari bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Bunday mashqlar orqali bola barmoqlarini mustaqil boshqarishni, harakatlarni ketma-ket bajarishni, buyruqni tushunib harakatga aylantirishni, ritmga moslashishni hamda predmetlar bilan aniq ishlashni o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barmoq mashqlari o'yin shaklida tashkil etilganda samarali bo'ladi. Masalan, "Barmoqlar salomlashadi", "Gul ochildi", "Yomg'ir tomchilari", "Qushcha uchdi" kabi obrazli mashqlar bolaning qiziqishini oshiradi va harakatni tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.



Kichik maktab yoshidagi bolalarda esa barmoqlar harakati mashqlari yozuvga tayyorgarlik, chiziqlarni aniq chizish, qalamni to'g'ri ushlash, diqqatni jamlash va koordinatsion harakatlarni boshqarish bilan bog'lanadi. Bu yoshda mashqlarga predmetlar, kichik to'plar, halqalar, tayoqchalar, arqonchalar, mozaika va rangli kartochkalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, barmoq mashqlarining faqat mexanik takrorlanishi yetarli emas. Ular maqsadli, tizimli va yoshga mos bo'lishi kerak. Agar mashqlar rejasiz hamda faqat vaqtni to'ldirish uchun bajarilsa, ularning rivojlantiruvchi samarasi pasayadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llash imkoniyatlari

Barmoqlar harakati mashqlarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining kirish, asosiy va yakuniy qismlariga kiritish mumkin. Kirish qismida ular bolalarning diqqatini jamlash, qo'l mushaklarini faollashtirish va mashg'ulotga tayyorlash vazifasini bajaradi. Asosiy qismda predmetlar bilan bajariladigan mashqlar, harakatli o'yinlar va koordinatsion topshiriqlar tarkibida qo'llaniladi. Yakuniy qismda esa bo'shashtiruvchi, tinchlantiruvchi va ritmik mashqlar sifatida foydalaniladi.

Amaliyotda quyidagi mashq turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- barmoqlarni ochish va yopish mashqlari - qo'l panjasi mushaklarini faollashtiradi;
- barmoq uchlarini navbat bilan tekkizish - harakat aniqligi va ketma-ketligini rivojlantiradi;
- kichik to'pni kaftda aylantirish - kaft, bilak va barmoq mushaklarini mustahkamlaydi;
- mayda predmetlarni saralash - ko'z-qo'l koordinatsiyasi va diqqatni rivojlantiradi;
- ipga munchoq tizish - barmoq aniqligi, sabr va diqqatni shakllantiradi;
- ritmik barmoq mashqlari - eshitish-harakat muvofiqligi va ritm sezgisini rivojlantiradi;
- chap va o'ng qo'l bilan turli harakatlarni bajarish - murakkab koordinatsion boshqaruvni rivojlantiradi;
- barmoq bilan shakl chizish - yozuvga tayyorgarlik va fazoviy tasavvurni shakllantiradi.

Bu mashqlar oddiy ko'rinsa-da, ular bolaning sezgi-harakat tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Muhimi, mashqlar qisqa, qiziqarli, xavfsiz va muntazam bo'lishi kerak.

Barmoqlar harakati mashqlarini samarali tashkil etishda quyidagi metodik talablarga amal qilish zarur:

- mashqlar bolaning yoshiga va jismoniy imkoniyatiga mos bo'lishi kerak;
- harakatlar oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich berilishi lozim;
- mashqlar o'yin, ritm, obraz va predmetli faoliyat bilan bog'lanishi maqsadga muvofiq;
- mashg'ulot davomiyligi bolani charchatmaydigan darajada bo'lishi zarur;
- har bir mashq aniq maqsadga ega bo'lishi kerak: barmoq kuchi, aniqlik, tezlik, ritm yoki koordinatsiyani rivojlantirish;
- mashqlar muntazam takrorlangandagina samarali natija beradi;
- xavfsizlik va gigiyena talablariga rioya qilinishi shart;
- individual yondashuv ta'minlanishi kerak, chunki bolalarning motor rivojlanish darajasi bir xil emas.

Mazkur talablar bajarilmasa, barmoq mashqlari oddiy ko'ngilochar harakat darajasida qolib ketadi. Ularni rivojlantiruvchi pedagogik vositaga aylantirish uchun maqsad, usul va baholash mezonlari aniq belgilanishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barmoqlar harakati mashqlaridan tizimli foydalanish maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda kichik motorika, ko'z-qo'l koordinatsiyasi, harakat aniqligi, ritm sezgisi hamda predmetlar bilan ishlash malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshda bu mashqlar o'yin orqali berilganda bolalarning qiziqishi ortadi. Kichik maktab yoshida esa barmoqlar harakati yozuvga tayyorgarlik, o'quv topshiriqlarini bajarish va diqqatni jamlash bilan bevosita bog'lanadi. Shu jihatdan barmoq mashqlari faqat jismoniy tarbiya vositasi emas, balki bolaning umumiy o'quv faoliyatiga tayyorgarligini ta'minlovchi pedagogik omil sifatida qaralishi kerak.



Biroq amaliyotda bu yo'nalishga yetarli e'tibor berilmasligi kuzatiladi. Ayrim mashg'ulotlarda barmoqlar harakati mashqlari rejasiz, qisqa va nazoratsiz bajariladi. Natijada ularning rivojlantiruvchi imkoniyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida kichik motorika mashqlarini alohida metodik tizim sifatida rejalashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga 3-5 daqiqalik barmoq mashqlari kiritilishi lozim;
- mashqlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi kerak;
- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mashqlar obrazli o'yin va ritmik harakatlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq;
- kichik maktab yoshidagi bolalarda predmetli mashqlar, kichik to'plar, halqalar, arqonchalar va yozuvga tayyorlovchi harakatlardan foydalanish tavsiya etiladi;
- mashqlarni bajarishda harakat aniqligi, ritm, tezlik va koordinatsiya alohida kuzatilishi zarur;
- katta motorika va kichik motorika mashqlari bir-birini to'ldiradigan tarzda tashkil etilishi kerak;
- ota-onalarga uy sharoitida bajariladigan oddiy barmoq mashqlari bo'yicha tavsiyalar berib borish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish jismoniy tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Kichik motorika bolaning yozuvga tayyorgarligi, ko'z-qo'l koordinatsiyasi, diqqat, nutq, predmetlar bilan ishlash hamda umumiy psixomotor rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, barmoq mashqlari oddiy yordamchi mashq emas, balki bolalarning harakat faoliyatini chuqurlashtiruvchi samarali pedagogik vositadir. Buning uchun ular tizimli, maqsadli, yoshga mos, xavfsiz va o'yin faoliyati bilan uyg'un holda tashkil etilishi zarur.

Demak, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida barmoqlar harakati mashqlaridan muntazam foydalanish bolalarda kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish, ularni o'quv faoliyatiga tayyorlash hamda umumiy jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari. - Toshkent, 2017-2023.
3. Maxkamjonov K.M., Tulenova X.B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. - Toshkent, 2006.
4. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. Harakatli o'yinlar va ularni o'qitish metodikasi. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
5. Gallahue D.L., Ozmun J.C., Goodway J.D. Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults. - New York: McGraw-Hill, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.